



UDK: 316.772:37.013.78:321.7

Komiljon INAKOV,
O‘zbekiston milliy universiteti Xalqaro munosabatlar bo‘yicha prorektori
Falsafa doktori PhD

PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF EDUCATIONAL AND PROPAGANDA TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF IDEOLOGICAL IMMUNITY OF YOUTH IN A DIGITAL SOCIETY

Annotation

In the context of a digital society, educational and propaganda technologies emerge as an important philosophical instrument for shaping ideological immunity in the consciousness of young people, through which a conscious position oriented toward critical thinking, moral responsibility, and social stability is established. Furthermore, interactive and media-mediated forms of knowledge transmission in the digital environment exert a positive influence on young people’s understanding of national and universal values, contributing to the development of spiritual maturity. However, uncontrolled information flows, simulacra, and manipulative content in the digital space intensify ideological fragmentation in youth consciousness, leading to the distortion of the hierarchy of truth and values. Therefore, this article analyzes the philosophical and methodological foundations of developing ideological immunity in the consciousness of young people under conditions of a digital society, reveals their positive potential and destructive risks, and scientifically substantiates effective ideological mechanisms.

Key words: Digital society, ideological immunity, youth consciousness, educational technologies, propaganda technologies, information security.

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ И ПРОПАГАНДИСТСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА МОЛОДЕЖИ В СИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация

В условиях цифрового общества образовательные и пропагандистские технологии выступают важным философским инструментом формирования идеологического иммунитета в сознании молодежи, посредством которого утверждается осознанная позиция, ориентированная на критическое мышление, нравственную ответственность и социальную стабильность. Кроме того, интерактивные и медиапосредованные формы передачи знаний в цифровой среде оказывают положительное влияние на осмысление молодым поколением национальных и общечеловеческих ценностей, способствуя обеспечению духовной зрелости. Вместе с тем неконтролируемые информационные потоки, симулякры и манипулятивный контент в цифровом пространстве усиливают идеологическую фрагментацию в сознании молодежи, приводя к искажению иерархии истины и ценностей. В связи с этим в данной статье анализируются философско-методологические основы развития идеологического иммунитета в сознании молодежи в условиях цифрового общества, раскрываются их позитивные возможности и деструктивные риски, а также научно обосновываются эффективные идеологические механизмы.

Ключевые слова: Цифровое общество, идеологический иммунитет, сознание молодежи, образовательные технологии, пропагандистские технологии, информационная безопасность

RAQAMLI JAMIYATDA YOSHLAR MAFKURAVIY IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM VA TARG'IBOT TEXNOLOGIYALARINING FALSAFIY TAHLILI

Аннотация

Raqamli jamiyat sharoitida ta'lim va targ'ibot texnologiyalari yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishning muhim falsafiy vositasi sifatida namoyon bo'lib, ular orqali tanqidiy tafakkur, axloqiy mas'uliyat va ijtimoiy barqarorlikka yo'naltirilgan ongli pozitsiya qaror topmoqda. Shuningdek, raqamli muhitda bilim uzatishning interaktiv va media-vositali shakllari yosh avlodning milliy va umuminsoniy qadriyatlarini anglashida, ma'naviy barkamollikni ta'minlashda ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq raqamli makonda nazoratsiz axborot oqimlari, simulyakrlar va manipulyativ kontent yoshlar ongida mafkuraviy parokandalikni kuchaytirib, haqiqat va qadriyatlar ierarxiyasining buzilishiga olib kelmoqda. Shu bois ushbu maqolada raqamli jamiyat sharoitida yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni rivojlantirishda ta'lim va targ'ibot texnologiyalarining falsafiy-metodologik asoslarini tahlil qilish, ularning ijobiy imkoniyatlari hamda destruktiv xavflarini ochib berish va samarali mafkuraviy mexanizmlar ilmiy jihatdan asoslangan

Kalit so'zlar: Raqamli jamiyat, mafkuraviy immunitet, yoshlar ongi, ta'lim texnologiyalari, targ'ibot texnologiyalari, axborot xavfsizligi.

Kirish. Jamiyat taraqqiyoti har doim muayyan g'oyalar, qadriyatlar va mafkuraviy tasavvurlar tizimi bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. Qadimgi davrlarda mifologik tafakkur, keyinchalik diniy-falsafiy qarashlar, Yangi davrda esa ratsional va ilmiy dunyoqarash jamiyat ongini yo'naltiruvchi asosiy mafkuraviy omil sifatida namoyon bo'lgan. Har bir tarixiy bosqichda hukmron g'oyalar insonning borliqni anglash usulini, ijtimoiy munosabatlar mazmunini hamda tarbiya va ta'lim tizimining mohiyatini belgilab bergan. Ayniqsa, mafkuraviy barqarorlik jamiyatning

ichki birligi, ijtimoiy xavfsizligi va taraqqiyot sur'atlarini ta'minlovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Mafkuraviy zaiflashuv yoki qadriyatlar ierarxiyasining buzilishi esa jamiyat ongida parokandalik, ijtimoiy beqarorlik va ma'naviy inqirozlarni shakllantirgan. Shu ma'noda, ta'lim va targ'ibot tizimi tarixiy jarayonlarda faqat bilim uzatish vositasi emas, balki jamiyatning mafkuraviy immunitetini shakllantiruvchi muhim institut sifatida faoliyat yuritib kelgan.

Zamonaviy davrda raqamli sivilizatsiyaning shakllanishi mazkur tarixiy qonuniyatlarni yangi bosqichga

olib chiqmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli media va virtual makon inson idroki, tafakkur uslubi hamda ijtimoiy ongning transformatsiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu sharoitda yoshlar ongi bir vaqtning o'zida ham ijobiy ma'naviy ta'sirlarga, ham mafkuraviy tahdidlarga ochiq holatga kelmoqda. Shu bois ta'lim va targ'ibot texnologiyalarining falsafiy mazmuni, ularning tarixiy-mafkuraviy vazifasi va zamonaviy funksiyalarini chuqur tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida mafkuraviy immunitetni shakllantirish faqat an'anaviy tarbiya usullari bilan cheklanib qolmasdan, axborot oqimlarini tanqidiy tahlil qilish, haqiqat va simulyakrni farqlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini ongli ravishda anglash qobiliyatini rivojlantirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim va targ'ibot texnologiyalarining falsafiy tahlili tarixiy tajriba va zamonaviy raqamli voqelikning o'zaro dialektikasida yoshlar ongida barqaror mafkuraviy immunitetni qaror toptirishning nazariy-metodologik asoslarini ochib berishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida mafkuraviy jarayonlar, ayniqsa yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalasi jahon falsafiy va ijtimoiy-gumanitar tafakkurida ustuvor tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida rivojlanmoqda. Xorijiy olimlar ushbu muammoni axborot jamiyati, raqamli madaniyat va media-reallik bilan bog'liq holda tahlil qilib, ta'lim texnologiyalarini shaxsning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish orqali mafkuraviy manipulyatsiyalarga qarshi intellektual barqarorlikni ta'minlovchi vosita sifatida baholamoqdalar [1]. Ularning fikricha, raqamli makonda axborotning ko'payishi inson ongini emas, balki uning tanlash qobiliyatini zaiflashtirishi mumkin, shu sababli ta'lim mafkuraviy immunitetning asosiy falsafiy omili hisoblanadi [2]. Rus olimlari asarlarida mafkuraviy immunitet tushunchasi ijtimoiy ong, qadriyatlar tizimi va milliy xavfsizlik bilan uzviy bog'liq holda talqin etilgan. Rus falsafiy maktabi vakillari raqamli makonda axborot ta'sirining kuchayishi jamiyat ma'naviy barqarorligiga tahdid solishini ta'kidlab, ta'lim va targ'ibotni ijtimoiy ongni muhofaza qiluvchi institutsional mexanizm sifatida asoslaganlar [3]. Bu yondashuvda mafkuraviy immunitet jamiyatning o'z-o'zini saqlash qobiliyati sifatida talqin qilingan. Ozarbayjon olimlari qarashlarida mazkur muammo milliy mafkura, davlatchilik g'oyasi va axborot xavfsizligi bilan bog'liq holda tadqiq etilgan. Ularning ilmiy izlanishlarida ta'lim va targ'ibot texnologiyalari yoshlar ongida milliy o'zlikni saqlash va tashqi mafkuraviy ta'sirlarga qarshi barqarorlikni ta'minlashning asosiy vositasi sifatida namoyon bo'ladi [4], bunda mafkuraviy immunitet milliy barqarorlik va ma'naviy mustaqillikning falsafiy kafolati sifatida talqin etilgan. Qozoq olimlari asarlarida esa, raqamli globallashuv sharoitida milliy ong, tarixiy xotira va ma'naviy qadriyatlarni saqlashga alohida e'tibor qaratilgan. Ular ta'lim texnologiyalarini yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ijtimoiy tajriba va milliy an'analarni raqamli muhitga moslashtirish mexanizmi sifatida baholaganlar [5]. Qozoq tadqiqotchilarining fikricha, mafkuraviy barqarorlik raqamli sivilizatsiya sharoitida milliy taraqqiyotning muhim shartidir.

O'zbek olimlari ishlarida mafkuraviy immunitet masalasi milliy istiqloq g'oyasi, ma'naviy tarbiya, yoshlar siyosati va mafkuraviy xavfsizlik nuqtai nazaridan tizimli ravishda tahlil qilingan. O'zbekiston sharoitida ta'lim va targ'ibot texnologiyalari yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, yot g'oyalarga nisbatan barqaror ongli pozitsiyani shakllantirishning asosiy vositasi sifatida asoslangan [6]. Bu tadqiqotlarda raqamli muhit imkoniyatlari bilan bir qatorda uning destruktiv mafkuraviy ta'sirlari ham falsafiy jihatdan yoritilgan [7]. Turli davlatlar olimlarining mafkuraviy immunitetni shakllan-

tirishga oid g'oyalarning qiyosiy tahlili, turli milliy ilmiy maktablarda yondashuvlar farq qilgan bo'lsa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy g'oya – ta'lim va targ'ibot texnologiyalarining raqamli jamiyat sharoitida yoshlar mafkuraviy immunitetni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Bu esa mazkur muammoni kompleks, falsafiy-metodologik asosda o'rganishning zarurligini yanada kuchaytiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot raqamli jamiyat sharoitida yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni rivojlantirishda ta'lim va targ'ibot texnologiyalarining falsafiy mohiyatini ochib berishga qaratilgan bo'lib, uni amalga oshirishda kompleks, ko'p bosqichli metodologik yondashuv qo'llanilgan. Tadqiqot metodologiyasi falsafiy, umumilmiy va maxsus ilmiy metodlarning o'zaro birligi asosida shakllantirilgan. Tadqiqotda, avvalo, dialektik metod qo'llanilib, raqamli jamiyatda ta'lim va targ'ibot texnologiyalarining ijobiy imkoniyatlari hamda destruktiv xavflari o'zaro ziddiyatli, biroq o'zaro bog'liq jarayonlar sifatida tahlil qilingan, dialektik yondashuv mafkuraviy immunitetning shakllanishini statik holat emas, balki doimiy rivojlanuvchi, tarixiy va ijtimoiy omillar ta'sirida o'zgaruvchi jarayon sifatida ochib berish imkonini bergan. Tarixiy-falsafiy metod orqali ta'lim va targ'ibotning turli sivilizatsion bosqichlardagi mafkuraviy vazifalari tahlil qilinib, mafkuraviy immunitetni shakllantirishda vorisilik va transformatsiya jarayonlari, raqamli jamiyatga xos yangi mafkuraviy mexanizmlarning shakllanishi tarixiy qonuniyatlar asosida ochib berilgan. Tizimli yondashuv metodi mafkuraviy immunitet ta'lim, targ'ibot, axborot muhiti, ijtimoiy institutlar va yoshlar ongi o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar tizimi sifatida o'rganish, raqamli jamiyatda mafkuraviy barqarorlikni ta'minlashda alohida elementlar emas, balki ularning o'zaro bir biri bilan bog'liq faoliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini asoslash imkonini bergan. Tahlil va sintez metodlari orqali ta'lim va targ'ibot texnologiyalarining alohida shakllari, mexanizmlari va ta'sir omillari chuqur o'rganilib, keyinchalik ularning umumiy falsafiy mazmuni va mafkuraviy funksiyalari sintez qilingan va bu mafkuraviy immunitetni shakllantirishning konseptual modelining ishlab chiqilishiga zamin yaratgan. Qiyosiy tahlil metodi xorijiy, rus, ozarbayjon, qozoq va o'zbek olimlarining mafkuraviy immunitet, ta'lim va targ'ibot texnologiyalari haqidagi qarashlarini solishtirishda qo'llanilgan va turli ilmiy maktablarning umumiy va farqli jihatlarini aniqlab, ularning zamonaviy mafkuraviy maydondagi ahamiyati ochib berilgan. Kontent-tahlil metodi raqamli media makonida tarqalayotgan axborot, ta'limiy va targ'ibot materiallarining mafkuraviy mazmunini tahlil qilish, d yoshlar ongiga ta'sir etuvchi simulyakrlar, manipulyativ diskurslar va qadriyatli kontent o'rtasidagi farqlarni aniqlash uchun foydalanilgan. Germenevtik metod orqali mafkuraviy tushunchalar, ramzlar va ma'nolar tahlil qilinib, ularning yoshlar ongida qanday idrok etilishi va ma'no kasb etishi falsafiy nuqtai nazardan izohlangan. Qo'llanilgan metodlar majmui raqamli jamiyat sharoitida ta'lim va targ'ibot texnologiyalarining mafkuraviy funksiyalarini chuqur, tizimli va kompleks tarzda tahlil qilish imkonini berganligi bois, yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni rivojlantirishning falsafiy-metodologik asoslari nazariy jihatdan asoslanib, ularni amaliyotga tatbiq etish uchun ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Tahlil va natijalar. Jamiyatning tarixiy taraqqiyotida siyosiy hokimiyat hech qachon faqat kuch yoki huquqiy mexanizmlar orqali barqaror bo'lmagan, balki har doim muayyan mafkuraviy tasavvurlar, ma'no tizimlari va qadriyatlar orqali legitimlashtirilgan. Masalan, Qadimgi sivilizatsiyalar davrida hokimiyat mifologik va diniy ma'nolar bilan mustahkamlangan bo'lsa, Yangi davrda mafkura milliy davlatchilik, fuqarolik ongi va ijtimoiy shartnoma g'oyalari orqali siyosiy jarayonlarni boshqargan. Industrial jamiyatda

esa mafkuraviy ta'sir asosan markazlashgan institutlar orqali amalga oshirilgan va aynan raqamli sivilizatsiya sharoitida mazkur tarixiy model tubdan o'zgarimoqda. Siyosiy jarayonlar endilikda davlat hududi bilan cheklanib qolmasdan, global raqamli makonda shakllanmoqda. Siyosiy fikr, ijtimoiy kayfiyat va fuqarolik pozitsiyasi ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar va algoritmlashgan axborot oqimlari orqali vujudga kelmoqda. Bu esa davlat mafkuraviy siyosati uchun mutlaqo yangi ontologik sharoitni shakllantirmoqda. Zamonaviy raqamli jamiyatni tahlil qilar ekan, Manuel Kastels hokimiyat tabiatidagi asosiy o'zgarishga e'tibor qaratgan. Uning fikricha, tarmoq jamiyatida hokimiyatning asosiy manbai resurs yoki zo'ravonlik emas, balki ma'no yaratish, ma'noni shakllantirish va uni tarqatish ustidan nazorat qilish hisoblanadi [1], ya'ni, kimki jamiyatda hukmron ma'nolarni belgilay olsa, u siyosiy jarayonlar yo'nalishini ham belgilaydi, bu g'oya raqamli makonda mafkuraviy ta'sirning yashirin, biroq juda samarali shaklga ega ekanini namoyon etadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, XX asrda totalitar tizimlar mafkurani ochiq tarzda nazorat qilgan bo'lsa, raqamli davrda mafkuraviy ta'sir tarqoq, algoritmlashgan va ko'pincha sezilmas shaklda amalga oshirilmoqda. Bu holat yoshlar ongiga salbiy ta'sir etmoqda, chunki ularning siyosiy ongi va fuqarolik pozitsiyasi ko'pincha institutsional ta'limdan ko'ra raqamli muhit orqali shakllanmoqda. Shu nuqtai nazardan, davlat mafkuraviy siyosati raqamli sivilizatsiya sharoitida faqat nazoratchi yoki cheklovchi funktsiya bilan cheklanmasligi balki, ma'no yaratuvchi, qadriyatlarini shakllantiruvchi va yoshlar ongida tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi strategik mexanizm sifatida amal qilishi zarur. Kastels ta'kidlaganidek, raqamli jamiyatda mafkuraviy bo'shliq qoldirilsa, bu bo'shliqni muqarrar ravishda tashqi ma'no tizimlari to'ldiradi [1].

Zamonaviy siyosiy-falsafiy tahlilda Manuel Kastels raqamli jamiyatda hokimiyatning mohiyati tubdan o'zgariganini ta'kidlagan. Uning fikricha, tarmoq jamiyatida hokimiyat zo'ravonlik yoki iqtisodiy resurslar orqali emas, balki ma'noni shakllantirish va ma'no ustidan nazorat qilish orqali amal qiladi [1], bu g'oya davlat mafkuraviy siyosati uchun fundamental ahamiyatga ega, chunki mafkura endilikda qonun yoki ma'muriy qarorlar emas, balki jamoaviy ongda shakllanadigan ma'no tizimlari orqali ishlaydi.

Aynan shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida yoshlar ongini yot g'oyalardan himoya qilish, ularda tanqidiy fikrlash va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish raqamli davrda davlat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri ekanini ta'kidlagan [2]. Bu yondashuv Kastels nazariyasi bilan mutanosib bo'lib, unga ko'ra davlatning mafkuraviy siyosati ma'no yaratish va ma'naviy yo'naltirish funksiyasini bajarishi lozim. Zero tarixiy jarayonlar mafkuraviy bo'shliq mavjud jamiyatlarda siyosiy jarayonlar tashqi axborot ta'siriga tez taslim bo'lganligidan dalolat beradi. XX asr oxirida ayrim mintaqalarda davlat mafkuraviy tizimidagi bo'shliq jamiyat ongida qadriyatlar inqirozi va siyosiy beqarorlikka olib kelgani ma'lum. Raqamli sivilizatsiya esa bunday jarayonlarni bir necha barobar tezlashtirish xususiyatiga ega. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston davlat mafkuraviy siyosati raqamli jamiyat sharoitida ta'lim va targ'ibot texnologiyalari orqali yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga raqamli diskursda qayta ma'no berish (masalan al Buxoriy ilmiy tadqiqot markazi, xalqaro islom sivilizatsiyasi markazi), hamda fuqarolik ongini mustahkamlashga qaratilgan strategik vazifani bajarmoqda [3]. Bu jarayon mafkuraviy immunitetni davlat va jamiyat barqarorligining muhim kafolati sifatida namoyon qiladi. Natijada, raqamli sivilizatsiya sharoitida davlat mafkuraviy siyosati ijtimoiy taraqqiyot jarayonlarini barqarorlashtiruvchi, jamiyatda ma'naviy konsensusni ta'minlovchi va yoshlar

ongini global mafkuraviy xavflardan himoya qiluvchi falsafiy-siyosiy mexanizm sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Raqamli sivilizatsiya sharoitida ushbu bog'liqlik yanada murakkab tus olmoqda. Axborot makoni globalashgan, chegaralar shartli tus olgan bir davrda siyosiy barqarorlikka tahdidlar endi faqat harbiy yoki iqtisodiy shaklda emas, balki ma'no, obraz va diskurslar orqali amalga oshirilmoqda. Bu jarayonni tahlil qilar ekan, Manuel Kastels raqamli jamiyatda hokimiyatning asosiy maydoni jismoniy hudud emas, balki jamoaviy ong ekanini ta'kidlagan [1]. Demak, milliy xavfsizlik masalasi endilikda ong, idrok va qadriyatlar makonini muhofaza qilish bilan bevosita bog'liqdir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mafkuraviy barqarorlikka ega bo'lmagan jamiyatlarda siyosiy tizimlar tashqi axborot ta'siri oldida zaiflashgan. Masalan, XX asr oxirida ayrim davlatlarda mafkuraviy bo'shliqning yuzaga kelishi jamiyat ongida qadriyatlar inqirozi, siyosiy nigilizm va ijtimoiy parokandalikni kuchaytirgan. Raqamli sivilizatsiya esa bunday jarayonlarni tezkor va keng qamrovli qilayotgan omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, mafkuraviy immunitet davlat xavfsizligining faqat qo'shimcha elementi emas, balki uning fundamental falsafiy asosidir. U yoshlar ongini radikal g'oyalar, destruktiv diskurslar va manipulyativ axborot oqimlaridan himoya qiladigan ma'naviy-siyosiy mexanizm sifatida ishlaydi. Chunki rus siyosiy faylasufi A.S. Panarin ta'kidlaganidek, mafkuraviy himoyasiz jamiyat tashqi ta'sirlarga nisbatan ochiq va beqaror bo'ladi [2].

Shu bois, O'zbekiston sharoitida bu masala davlat siyosati darajasida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, axborot tahdidlariga qarshi ma'naviy barqarorlikni ta'minlash milliy xavfsizlikning ajralmas qismi ekanini ta'kidlagan [3], bu yondashuv mafkurani faqat tarbiyaviy vosita emas, balki siyosiy barqarorlikni ta'minlovchi strategik resurs sifatida qarashni taqozo etadi.

Raqamli jamiyatda davlat mafkuraviy siyosati shu boisdan ham repressiv yoki taqiqlovchi mexanizmlarga emas, balki ta'lim va targ'ibot texnologiyalari orqali tanqidiy tafakkur, fuqarolik mas'uliyati va milliy qadriyatlarini ongli ravishda qabul qilishni shakllantirishga yo'naltirilishi lozim. Faqat shu holatdagina yoshlar tashqi mafkuraviy ekspansiyaga qarshi barqaror, siyosiy jarayonlarda esa faol va mas'ul sub'ekt sifatida maydonga chiqadi. Natijada, raqamli sivilizatsiya sharoitida mafkuraviy immunitet siyosiy barqarorlik va milliy xavfsizlikni ta'minlovchi asosiy falsafiy-politik ustunga aylanadi. Davlatning barqaror kelajagi esa aynan ongli, mafkuraviy jihatdan barkamol va raqamli muhitda mustaqil fikrlay oladigan avlodni tarbiyalash bilan bevosita bog'liqdir.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, raqamli sivilizatsiya sharoitida mafkura o'zining an'anaviy holatidan chiqib, axborot, media-obrazlar, algoritmlar va raqamli diskurslar orqali amal qiluvchi murakkab ijtimoiy voqeikka aylanmoqda. Bu jarayon mafkuraviy ta'sirning ochiq va institutsional mexanizmlardan ko'ra, yashirin, tarqoq va manipulyativ shakllarda namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi. Shu sababli yoshlar ongi raqamli mafkuraviy ta'sirlarga nisbatan eng sezgir va zaif qatlam sifatida maydonga chiqmoqda.

Mafkuraviy immunitet faqat tarbiyaviy yoki psixologik himoya sifatida emas, balki yoshlar ongini simulyakrlar, posthaqiqat diskurslari va destruktiv g'oyalardan muhofaza qiluvchi falsafiy-siyosiy mexanizm sifatida talqin qilish zarurligini namoyon etmoqda. Mafkuraviy immunitet yoshlarda tanqidiy tafakkur, qadriyatli baholash, fuqarolik mas'uliyati va milliy identifikatsiyani shakllantirish orqali

jamiyatning siyosiy barqarorligi va milliy xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, ta'lim va targ'ibot texnologiyalari raqamli jamiyatda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning asosiy institutsional vositalari sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular orqali yoshlar ongida milliy va umuminsoniy

qadriyatlar uyg'unligi, ma'naviy barqarorlik hamda raqamli muhitda mustaqil fikrlash qobiliyati qaror topadi. Demak, raqamli sivilizatsiya sharoitida davlat mafkuraviy siyosati ta'lim va targ'ibot texnologiyalarini falsafiy asosda qayta anglashni va ularni strategik darajada muvofiqlashtirishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR

1. Castells M. The Power of Identity.- Oxford: Blackwell Publishing, 2010.- 312 p.
2. Jenkins H. Convergence Culture: Where Old and New Media Collide. - New York: New York University Press, 2006. - 336 p.
3. Panarin A.S. Ideologiya i globalizatsiya.- Moskva: Algoritm, 2002. - 384 s.
4. Aliyev R.A. Natsionalnaya ideologiya i informatsionnaya bezopasnost. - Baku: Nauka, 2016. - 256 s.
5. Нысанбайев А.Н. Философия независимости.- Алматы: Г'ылым, 2012. - 320 b.
6. Qosimov B.N. Milliy g'oya va mafkuraviy tarbiya. - Toshkent: O'zbekiston, 2018. - 248 b.
7. Ergashev I.E. Axborot xavfsizligi va ma'naviy tahdidlar. - Toshkent: Fan, 2020. - 210 b.
8. Castells M. The Power of Identity. - Oxford: Blackwell Publishing, 2010. - P. 3 8. Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar - Yangi O'zbekistonning strategik tayanchi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021. - B. 24–31.
9. Ergashev I.E. Axborot xavfsizligi va mafkuraviy tahdidlar. - Toshkent: Fan, 2020. -B. 87–102.
10. Castells M. The Power of Identity. -Oxford: Blackwell Publishing, 2010. - P. 3–12, 53–67.
11. Panarin A.S. Ideologiya i globalizatsiya.-Moskva: Algoritm, 2002.-S. 141
12. Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar - Yangi O'zbekistonning strategik tayanchi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021. - B. 19–27.